

# PROFILAKTIKA INSPEKTORINING XOTIN-QIZLAR MASALARLARI BO‘YICHA INSPEKTORI BILAN HAMKORLIGINING AHAMIYATI

*IIV Akademiyasi Kunduzgi ta’lim*

*3-o ‘quv kursi 321-guruh kursanti*

*G ‘oyibnazarova Sevinchxon Baxodir qizi*

**Annotation.** Ushbu maqolada xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektori va profilaktika inspektorining samarali hamkorligini tashkil etish, hamkorlikda yuzaga kelayotgan muammolar, ikkala inspektor o‘rtasida kommunikatsiya kanallarini yaxshilash, malaka oshirish kurslarini tashkil etish, birgalikda ishlashda aniq vazifalarni belgilashda amaliy tavsiyalar va takliflar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** samarali hamkorlik, ayollarning huquq va erkinliklari, oiloa ichidagi muammolarni hal qilish, kommunikatsiyani yaxshilash, axborot almashish, malaka oshirish kurslari, birgalikdagi vazifalar

**Annotation.** This article presents practical recommendations and suggestions for organizing effective cooperation between the inspector on women's issues and the inspector of prevention, problems arising in cooperation, improving communication channels between the two inspectors, organizing training courses, and defining specific tasks for joint work.

**Keywords:** effective cooperation, women's rights and freedoms, solving problems within the oiloa, improving communication, exchange of information, training courses, joint tasks.

Profilaktika inspektorining xotin-qizlar masalarlari bo‘yicha inspektori bilan hamkorligi juda muhim ahamiyatga ega. Bunday hamkorlik bir nechta asosiy yo‘nalishlarda samarali bo‘lishi mumkin: huquqbuzarliklar va jinoyatlarni oldini olish, oila ichidagi muammolarni hal qilish, jamoat joylarida xavfsizlikni ta’minlash, ma’rifat

va ta'lim berish, favqulodda vaziyatlarda yordam, jamiyatda muvozanatni saqlash va shu kabilar.

Xotin-qizlar masalarlari bo'yicha inspektori va profilaktika inspektori o'rtasidagi integratsiyalashgan faoliyat, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va zo'ravonlikka qarshi kurashishda alohida ahamiyatga ega. Bu o'rinda xotin-qizlar va profilaktika inspektorlari o'rtasida kommunikatsiya kanalini yaxshilash, malaka oshirish kurslarini tashkil etish, birgalikda ishlashda aniq vazifalarni belgilash zarur.

Xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlar va profilaktika inspektorlari o'rtasida samarali kommunikatsiya – bu ayollarning huquqlarini himoya qilish va oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashishda, jamiyatda ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bunday yaxshilanish nafaqat o'zaro tushunushni kuchaytiradi, balki zo'ravonlik holatlariga tezkor va samarali javob berish imkonini yaratadi. Bugungi kunda kommunikatsiyaning to'liq va aniq bo'lmasligi bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan: axborot uzatishdagi kamchiliklar – vaqtida aralashuv amalga oshirilmasligi va zo'ravonlikni davom etishiga olib kelishi mumkin, rol va mas'uliyatning noaniqligi – ular o'rtasida tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi bu esa hamkorlik samaradorligini pasaytirishi mumkin, har ikki inspektorlar o'rtasida ma'lumotlar almashish jarayonlari aniq va tartibli bo'lmasligi, zarur choralar ko'rilmasligiga olib kelishi mumkin. Ikkala inspektor o'rtasida o'zaro axborot almashish uchun yagona ma'lumotlar bazasi tashkil etish lozim. Bu platformada har bir holat, shikoyat, tergov jarayoni yoki yordamga muhtoj ayollar haqida ma'lumot to'planadi. Shu tarzda har ikki guruh o'zaro axborot olishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi.

Profilaktika inspektorlari va xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori o'rtasida malaka oshirish kurslarini tashkil etish – o'zaro tushunishni kuchaytirish, ular o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda ko'proq samaradorlikka erishish imkonini beradi. Bunday kurslarda xotin-qizlar masalalari va gender tengligi, profilaktika inspektorlarining roli, xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlarning roli, hamkorlik va koordinatsiya, yangi texnologiyalarni qo'llash kabi

yo‘nalishlarning bo‘lishi maqsadga muvofiq. Ular o‘rtasida texnologiyalardan foydalanish ikki muhim sohaga xizmat qiladigan samarali hamkorlik ta’minlash uchun juda muhimdir. Profilaktika inspektorlari va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektori o‘rtasidagi hamkorlikda yangi texnologiyalardan foydalanish ijtimoiy muammolarni hal qilishda samarali vosita hisoblanadi. Yangi texnologiyalar yordamida vaqt va resurslardan tejomkor foydalanish, xavf-xatarlarni aniqlash va ta’sirchan choralarni ko‘rish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, jamiyatdagi xavfsizlikni ta’minlash va ijtimoiy adolatni oshirish imkonini taqdim etadi. Ma’lumotlar bazalari va monitoring tizimlari, mobil ilovalar va GPS tizimlari, onlayn platformalar va elektron hijjatlar almashinushi, sun’iy intellect va ma’lumotlar tahlili, ijtimoiy tarmoqlar va axborot almashish, virtual reallik va treyninglar, videokonferensiyalar va onlayn maslahatlar kabi yangi texnologiyalar ularning ishlarini samarali va tezkor qilish, huquqni muhofaza qilish, ijtimoiy muammolarni aniqlash va bartaraf etish jarayonlarini yengillashtirishda katta yordam beradi.

Profilaktika inspektorlari va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektori o‘rtasida birgalikda aniq vazifalarni belgilash orqali samarali hamkorlik, tezkor va muvofiqlashtirilgan javob, muammolarni kompleks yondashuvda hal qilish, ijtimoiy ximoyani kuchaytirishga erishish mumkin. Birgalikda profilaktik tadbirlarni amalga oshirish zo‘ravonlikni oldini olish, ayollar huquqlarini himoya qilish, jamoatchilikni xabardor qilish va hamkorlikni samarali rivojlantirish imkonini beradi. Profilaktik tadbirlarni amalga oshirishda hamkorlikning yo‘nalishlari bo‘lib ularni birma-bir sanab o‘tamiz.

- Xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilish, xususan, zo‘ravonlikka uchragan ayollarga yordam berish, zarur huquqiy maslahatlar va yordamlarni taqdim etish.

- Huquqiy va psixologik bilimlarni oshirish- “Xotin-qizlar uchun huquqiy yordam” yoki “Oiladagi zo‘ravonlikka qarshi kurashish” mavzusida onlayn yoki oflayn tarzda seminarlar tashkil etish.

- oilaviy zo'ravonlikni oldini olish va qurbanlarga yordam berish- bunday holatlarni aniqlash uchun maxsus guruhlar va komissiyalar tashkil etish, qizlar va ayollarga mo'ljallangan psixologik maslahatlar beruvchi mutaxassislar chaqirish.

- Jinoyatchlikni oldini olish va profilaktik tekshiruvlar- uyma-uy tekshiruvlar o'tkazish, o'zgaruvchan ijtimoiy muhitni tahlil qilish va xavfli oilalarni aniqlash

- Ijtimoiy yordam va reabilitatsiya dasturlari- ijtimoiy reabilitatsiya markazlari tashkilo etish, ularni zo'ravonlikka uchragan ayollar va bolalar uchun yordam markazlariga aylantirish.

- Maxfiy shikoyat va maslahatlar tizimini tashkil etish- telefon yordam xizmati, maxfiy shikoyatlarni qabul qilish va ayollarni himoya qilish bo'yicha tizim yaratish.

- onlayn va oflayn kompaniyalar- "Oilaviy zo'ravonlikka yo'l qo'ymaylik!"

yoki "Ayollarga hurmat" mavzularida ijtimoiy tarmoqlarda va jamoat joylarida reklama kompaniyalari o'tkazish.

Profilaktika inspektorlari va xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlari o'rtasidagi hamkorlik, profilaktik tadbirlarni amalga oshirishda juda muhim rol o'ynaydi. Bu hamkorlik nafaqat huquqni muhofaza qilish, balki ijtimoiyadolatni ta'minlash va jamiyatdagi barcha shaxslarning huquqlarini hurmat qilishda muhim o'rin tutadi. Ular birgalikda ish olib borish orqali xavf-xatarlarni minimallashtirish, ijtimoiy xavfsizlikni oshirish va jamoatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Yana, profilaktik tadbirlarni amalga oshirish, jamoatchilik xavfsizligini ta'minlash va ijtimoiy muammolarni bartaraf etish borasida katta ahamiyatga ega. Ularning o'zaro hamkorlikda amalga oshiradigan tadbirlari jamiyatdagi o'zgarishlarga, xususan, xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo'ravonlikni kamaytirish, huquqiy ongni oshirish, hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda profilaktika inspektorlari va xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlari o'rtasidagi hamkorlik, ijtimoiy xavfsizlik va oilaviy muammolarni hal etish borasida muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda, bu sohada muhim ijtimoiy, huquqiy va psixologik masalalar mavjud bo'lib, ular birgalikda hal etilishi lozim. O'zbekiston hukumati xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilish, oilaviy

zo‘ravonlikni oldini olish, ayollarni ijtimoiy himoya qilish va ularga huquqiy yordam ko‘rsatish borasida bir qator tashabbuslarni amalga oshirib kelmoqda. Ayni paytda, bu hamkorlikning samarali bo‘lishi uchun ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, lekin tizimli va uzlucksiz o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, yangi texnologiyalar va resurslar yordamida samaradorlikni oshirish zarur. Yangi qonunlar, ijtimoiy reabilitatsiya tizimlarining tashkil etilishi va malaka oshirish kurslari bu borada ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M “Inson manfaatlarini ta’minlash uchun, avvalo, uning huquq va erkinliklari, osuda va farovon hayoti himoya qilinmog‘i kerak” // Xalq so‘zi T. 2017 10 fev.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Ichki ishlar organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2896-sон qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-fevraldagи “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahlla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 5938-sон farmoni.
4. Soatov M.Z – Aholi huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha milititsiya tayanch punktlari faoliyatining huquqiy asoslari // “Hozirgi zamon huquqshunoslik ilmini egallash yo‘lida” – 2004 B. 208-212
5. Soatov M.Z - Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda milititsiya tayanch punktlarining roli // “Huquqiy ongdan – huquqiy madaniyat sari” T. 2006 B. 92-96